

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, 15-oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdukarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadilloevich	



KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Djalilov Sardor Sadilloyevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

sardordjalilov11071996@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi korxona potentsialining mohiyati, uning iqtisodiy tizimdagi o'rni va nazariy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda "potensial" tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uni turli olimlar tomonidan talqin etilishi hamda korxona faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, potentsialning tuzilmasi, tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Natijada, korxona potentsialini maqsadli shakllantirish va baholashda konseptual yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: korxona potentsiali, iqtisodiy tizim, resurslar, ishlab chiqarish imkoniyati, iqtisodiy baholash, rivojlanish omillari.

Abstract. This thesis analyzes the essence of enterprise potential, its role within the economic system, and the main theoretical approaches to its study. The economic meaning of the term "potential," its interpretations by various scholars, and its importance for enterprise development are discussed. The research also examines the structure and interrelation of potential components. As a result, the study justifies the need to reconsider conceptual approaches to the purposeful formation and evaluation of enterprise potential.

Keywords: enterprise potential, economic system, resources, production capacity, economic evaluation, development factors.

Аннотация. В данной тезисной работе проанализирована сущность потенциала предприятия, его роль в экономической системе и существующие теоретические подходы. Рассмотрено экономическое содержание термина «потенциал», различные трактовки ученых, а также значение потенциала в развитии деятельности предприятия. Особое внимание уделено структуре и взаимосвязи элементов потенциала. В результате обоснована необходимость пересмотра концептуальных подходов к целенаправленному формированию и оценке потенциала предприятия.

Ключевые слова: потенциал предприятия, экономическая система, ресурсы, производственные возможности, экономическая оценка, факторы развития.

KIRISH

Milliy iqtisodiyot doirasida bozor tamoyillarining rivojlanishi korxonaning imkoniyatlarini baholash va tahlil qilishning yangi, amaliyotga mos usullarini yaratish uchun zamin yaratadi. Bunda tashkilotning ichki va tashqi muhitini iqtisodiy diagnostika qilish bo'yicha mahalliy va xorijiy tajriba hisobga olinadi. Korxona potentsialini baholashda iqtisodiy va tadbirkorlik ustunligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, shuningdek, to'plangan resurslar hajmi va potentsial imkoniyatlardan foydalanish darajasi qo'llaniladi.

Hozirgi bosqichda dolzarb masala nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini baholash, balki bu jarayonda sarflanayotgan resurslar hajmini aniqlashdir. Shu sababli korxona potentsialini aniqlash, uni baholash usullari va baholashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalasi yanada dolzarbroq bo'lib bormoqda. Buni mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Hozirgi vaqtda ko'plab masalalar bo'yicha yagona yondashuvlar shakllanmaganligi sababli olimlar tomonidan korxona potentsialini o'rganish, uni baholashga doir yondashuvlar va usullar ustida izlanishlar davom etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — korxona potentsialining mohiyati va tuzilmasiga oid nazariy hamda ilmiy yondashuvlarni o'rganish va ularni tahlil qilishdan iborat. Belgilangan vazifalarni hal etishda umumilmiy usullardan foydalanildi. "Potensial" atamasi iqtisodiy mazmunda lotincha potentia so'zidan olingan bo'lib, "yashirin imkoniyatlar" degan ma'noni anglatadi. Bu imkoniyatlar mehnat faoliyati orqali xo'jalik amaliyotida haqiqatga aylanishi mumkin.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda O.I. Oleksyuk va E.P. Mixaleva ushbu atamani mavjud imkoniyatlar, kuchlar, zahiralar va vositalar sifatida talqin qiladilar, ya'ni ular ishlatilishi mumkin bo'lgan resurslar yoki har qanday sohada quvvat darajasi, ma'lum bir maqsad uchun zarur vositalar majmui sifatida izohlaydilar.

A.B. Borisovning "Iqtisodiy lug'at"ida bu atama "muayyan sharoitlarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan yashirin qobiliyatlar yoki faoliyat yuritish kuchlari" sifatida izohlangan.

Shunday qilib, "potensial" atamasi deganda har qanday subyektda — bu alohida olingan shaxs, mehnat jamoasi yoki jamiyat bo'lishidan qat'i nazar — ma'lum bir sohada faoliyat yuritish uchun yashirin imkoniyatlar yoki qobiliyatlarning mavjudligi tushuniladi.

Olimlar V.I. Veyts va K.G. Vobloning asarlarida esa ishlab chiqaruvchi kuchlar potentsiali tushunchasi mamlakatning aholining ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari sifatida talqin etiladi. Zamonaviy potensial tushunchasining shakllanishida uchta asosiy yo'nalishni ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish vakillari (V.M. Arxipov va boshqalar)ning fikricha, potensial — bu tizimning faoliyat yuritishi yoki rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turli xil resurslar majmuasidir.

Ikkinchi guruh olimlari (L.V. Artemova, Ye. Popov) potensialni ishlab chiqarish maqsadiga erishishni ta'minlaydigan moddiy va mehnat omillari tizimi sifatida talqin qiladilar.

Uchinchi yo'nalish iqtisodchilari (O.G. Mendrul va boshqalar) esa potensialni iqtisodiy tizim resurslari majmuasining o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish qobiliyati deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, potensial — bu ob'yektning tuzilmasi va funksiyasining birligi, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi yaxlit tushunchadir.

Shu asosda xulosa qilinadiki, jamoaning ma'lum vazifalarni bajarishdagi imkoniyatlari ob'yekt tuzilmasining qanchalik mukammal shakllanganligiga va tuzilma hamda funksional elementlar bir-biriga qanchalik mosligiga bog'liq. Tuzilma va funksiyalar uyg'unlashgan sayin, potensial darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinadiki, hozirgi vaqtda potensialning iqtisodiy mohiyatini talqin etishda bir yoqlama yondashuv ustunlik qilmoqda, ya'ni uni yoki resurslar majmuasi, yoki xo'jalik tizimining mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati, yoki ishlab chiqaruvchi kuchlarning ma'lum natijaga erishish imkoniyati sifatida tushunish mavjud.

Potensial o'zida makoniy va zamoniy xususiyatlarni birlashtirgan holda, uch darajadagi aloqalar va munosabatlarni mujassamlashtiradi:

Birinchidan, u o'tmishni aks ettiradi, ya'ni tizim shakllanish jarayonida to'plangan va uning faoliyat yuritish hamda rivojlanish imkoniyatini belgilovchi xususiyatlar majmuasini ifodalaydi.

Ikkinchidan, u mavjud imkoniyatlardan amaliy foydalanish darajasini tavsiflaydi. Bu esa amalga oshirilgan va amalga oshirilmagan imkoniyatlarni farqlash imkonini beradi. Shu ma'noda "potensial" tushunchasi qisman "zahira" tushunchasiga yaqinlashadi.

Uchinchidan, potensial rivojlanishga, ya'ni kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi. U barqarorlik va o'zgaruvchanlik holatining birligi sifatida kelajak rivojlanishning mumkin bo'lgan elementlarini ham o'z ichiga oladi.

Potensial darajasi tizimning hozirgi holatini aks ettiradi va bu holat yuqorida sanab o'tilgan barcha holatlarning o'zaro yaqin aloqasi natijasida shakllanadi. Shu jihati bilan u "resurs" va "zahira" tushunchalaridan farq qiladi.

XULOSA

Hozirgi vaqtda potensialning iqtisodiy mohiyatini talqin etishda bir yoqlama yondashuv ustunlik qilmoqda — ya'ni uni resurslar majmuasi, xo'jalik tizimining mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati yoki ishlab chiqaruvchi kuchlarning ma'lum natijaga erishish imkoniyati sifatida tushunish keng tarqalgan.

Bozor iqtisodiyoti tizimi shakllanayotgan davrda korxonalarning uzoq muddatli va joriy imkoniyatlarini rejalashtirish hamda optimallashtirish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob bera oladigan, moslashuvchan ishlab chiqarish va tashkiliy tizimlarni yaratish zarur.

Shu sababli milliy korxonalarni yaratish va rivojlantirishga, eng avvalo esa ularning potensialini maqsadli shakllantirish jarayonlariga doir konseptual yondashuvlarni qayta baholash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oleksyuk O.I., Mixaleva E.P. Ekonomicheskij potentsial predpriyatiya: teoriya i metodologiya. — Kiev: Naukova Dumka, 2003.
2. Mendrul O.G. Ekonomicheskij potentsial i effektivnost ego ispolzovaniya. — Minsk: Ekonomika, 2004.
3. Artemova L.V., Popov Ye.V. Upravleniye potentsialom predpriyatiya. — Moskva: Infra-M, 2010.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. — Toshkent: Mehnat, 2018.
5. Qo'chqorov O., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021.
6. Xolboyev A., G'ulomov S. Korxona iqtisodiyoti va menejment asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
7. Djalilov S.S. Korxona potentsialining mohiyati va tuzilmasiga oid nazariy hamda ilmiy yondashuvlar tahlili. — Tezis. Toshkent, 2025.



8. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1985.
9. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. — 19th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010.
10. Kotler P. Marketing Management. — 14th ed. — Pearson Education, 2012.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100